

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quadrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	389
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	397
P.SH.Usmonov	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ИНВЕСТИЦИОННОГО АНАЛИЗА ДЛЯ ОЦЕНКИ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	401
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KORPORATIV MADANIYAT, AXLOQIY-RUHIY VA MA'NAVIY MUHITNING O'RNI	407
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ELEKTRON PULLARNING MOHIYATI VA ULARNING MILLIY TO'LOV TIZIMIDAGI ROLI.....	416
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	



ELEKTRON PULLARNING MOHIYATI VA ULARNING MILLIY TO'LOV TIZIMIDAGI ROLI

Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mustaqil izlanuvchi

E-mail: sciencemaqola@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5610-9107

Annotatsiya. Maqolada elektron pullarning iqtisodiy mohiyati, huquqiy maqomi va funksional xususiyatlari keng ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan. Klassik pul nazariyasi (Fisher, Keynes, Friedman) dan zamonaviy raqamli moliya yondashuvlarigacha bo'lgan ilmiy spektrda elektron pullarning o'рни aniqlashtirilgan. Uchta konseptual yondashuv — hisob-kitob, nopul moliyaviy mahsulot va pul talqini — qiyosiy tarzda ko'rib chiqilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy to'lov tizimida elektron pullarning o'рни, aholining moliyaviy inklyuziyasiga ta'siri va fintech sektorining rivojlanishiga hisssasi xalqaro tajriba hamda O'zbekiston statistikasi asosida baholangan. CBDC («Raqamli so'm») joriy etish istiqbollari xalqaro amaliyot bilan qiyoslangan holda tahlil qilingan. Risk-matritsasi va boshqaruv tavsiyalari berilgan.

Kalit so'zlar: elektron pul, raqamli iqtisodiyot, to'lov tizimi, fintech, raqamli hamyon, monetar siyosat, CBDC, moliyaviy inklyuzivlik, ISK, risk-matritsasi.

Abstract. This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of the economic essence, legal status, and functional characteristics of electronic money. The role of electronic money is clarified within a scientific spectrum that ranges from classical monetary theory (Fisher, Keynes, Friedman) to modern digital finance approaches. Three conceptual approaches - the accounting, non-monetary financial product, and monetary interpretations - are comparatively examined. The article evaluates the role of electronic money in the national payment system within the context of the digital economy, its impact on financial inclusion, and its contribution to the development of the fintech sector, drawing upon international experience and statistical data from Uzbekistan. The prospects of introducing a CBDC ("Digital Som") are analyzed in comparison with international practices. A risk matrix and management recommendations are also provided.

Key words: electronic money, digital economy, payment system, fintech, digital wallet, monetary policy, CBDC, financial inclusion, EMS, risk matrix.

Аннотация. В статье на широкой научно-теоретической основе анализируются экономическая сущность, правовой статус и функциональные особенности электронных денег. Уточнено место электронных денег в научном спектре - от классической теории денег (Фишер, Кейнс, Фридман) до современных подходов в области цифровых финансов. Сравнительно рассмотрены три концептуальных подхода: расчётный, трактовка в качестве неденежного финансового продукта и денежная интерпретация. На основе международного опыта и статистики Узбекистана дана оценка роли электронных денег в национальной платёжной системе в условиях цифровой экономики, их влияния на финансовую инклюзивность населения и вклада в развитие финтех-сектора. Проанализированы перспективы внедрения CBDC ("Цифровой сум") в сопоставлении с международной практикой. Предложена матрица рисков и даны рекомендации по их управлению.

Ключевые слова: электронные деньги, цифровая экономика, платёжная система, финтех, цифровой кошелёк, монетарная политика, CBDC, финансовая инклюзивность, матрица рисков.

KIRISH

Global raqamli transformatsiya moliyaviy tizimlarda tub islohotlarni yuzaga keltirmoqda: elektron pullarning keng qo'llanilishi to'lov mexanizmlarining yangi bosqichiga o'tishiga sabab bo'lmoqda. Jahon banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi barcha chakana tranzaksiyalarning 48 foizi elektron shaklda amalga oshirilmoqda, raqamli to'lovlar bozori esa yiliga o'rtacha 14–17 foizga o'sib bormoqda [1].

Biroq elektron pullar sohasi nafaqat texnologik, balki chuqur iqtisodiy-nazariy muammolarni ham o'z ichiga oladi. Birinchidan, «elektron pul» tushunchasining o'zi ilmiy adabiyotda hali yagona ta'rifga ega emas: klassik iqtisodchilar (Fisher, Keynes, Friedman) tomonidan ishlab chiqilgan pul nazariyasi bu yangi hodisani to'liq tushuntirib bera olmaydi [2, 3]. Ikkinchidan, elektron pullarni tartibga solish modellari



mamlakatdan mamlakatga keskin farqlanadi — Singapur «proportional regulation» modelidan Xitoyning PBOC markazlashtirilgan nazoratigacha [4, 5]. Uchinchidan, O'zbekiston uchun elektron pullar strategik ahamiyatga ega: 2018–2024-yillarda elektron to'lovlar hajmi 55 barobardan ko'proqqa oshgan [6].

Ushbu maqolaning maqsadi — elektron pullarning iqtisodiy mohiyatini ko'p qirrali nazariy-empirik tahlil asosida ochib berish, O'zbekiston milliy to'lov tizimidagi rolini miqdoriy baholash va CBDC «Raqamli so'm» joriy etish istiqbollarini xalqaro tajriba bilan qiyoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Klassik pul nazariyasi va elektron pullar - Elektron pullarning iqtisodiy mohiyatini tushunish uchun avvalo klassik pul nazariyasiga murojaat qilish zarur. Irving Fisher (1911) ning almashinuv tenglamasi $MV = PQ$ da elektron pullar V (pul muomalasi tezligi) ni sezilarli oshiradi: BIS (2022) tadqiqotiga ko'ra, raqamli to'lovlar joriy etilgan mamlakatlarda V ko'rsatkichi o'rtacha 18–24% ga ko'tarilgan [7]. Bu esa bir xil M (pul massasi) da P (narxlar darajasi) yoki Q (real ishlab chiqarish) ning o'sishini bildiradi.

John Maynard Keynes (1936) tomonidan asoslangan pul talab nazariyasida tranzaksiya motivi (transaction motive) asosiy ahamiyatga ega. Elektron pullar tranzaksiya xarajatlarini keskin kamaytiradi — McKinsey (2023) hisob-kitoblariga ko'ra, raqamli to'lovlarda xarajat naqd pulga nisbatan 40–60% past [8]. Bu esa Keynes modeli bo'yicha pul talabini tranzaksiya uchun kamroq ushlab turish va uni investitsiyaga yo'naltirish imkonini beradi.

Milton Friedman (1956) ning miqdor nazariyasi ko'rinishida esa elektron pullar $M1$ va $M2$ pul agregatlariga ta'sir qiladi. O'zMB (2023) metodologiyasiga ko'ra, elektron hamyonlardagi mablag'lar $M1$ ning bir qismi sifatida hisobga olinadi, bu esa monetar siyosat samaradorligiga bevosita ta'sir etadi [6].

Elektron pul ta'riflarining qiyosiy tahlili - Ilmiy adabiyotda elektron pullarni ta'riflashda bir nechta yondashuv mavjud. Quyidagi 1-jadvalda asosiy ta'riflar qiyosiy tarzda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Elektron pullar ta'riflarining qiyosiy tahlili

Manba / Muallif	Ta'rif / yondashuv	Asosiy belgi	Yondashuv turi
BIS (2001, 2022)	«Elektron shaklda saqlangan va to'lov vositasi sifatida keng qabul qilinadigan oldindan to'langan qiymat»	Oldindan to'lov; bank hisobvarag'isiz foydalanish imkoniyati	Funksional
Yevropa Markaziy banki (EMI Dir. 2009/110/EC)	«Emitentga nisbatan pul talab qilish huquqini ifodalovchi, elektron (jumladan magnit) shaklda saqlangan qiymat»	Qiymat da'vosi; elektronik saqlash	Huquqiy
N. Ferguson (Harvard, 2019)	«Pulning evolyutsiyasida uchinchi revolyutsion bosqich — naqd va naqd bo'lmagan puldan keyingi yangi shakl»	Evolyutsion bosqich; qaytarib bo'lmaz o'zgarish	Tarixiy-iqtisodiy
D. Tapscott (2018)	«Iqtisodiyot tezligini oshiruvchi qo'shimcha mexanizm, naqd pulning to'liq o'rnini bosmaydigan, lekin tranzaksiya xarajatlarini keskin kamaytiruvchi vosita»	Tranzaksiya xarajati; tezlik; qo'shimcha mexanizm	Pragmatik
FATF (2019)	«Raqamli shaklda ifodalangan qiymat bo'lib, to'lov yoki o'tkazish vositasi sifatida raqamli savdoda qabul qilinishi mumkin»	Raqamli savdo; AML/ CFT muvofiqlik	Tartibga solish
O'zR «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonun (2019)	«Elektron shaklda saqlangan va to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag'lari»	Milliy huquqiy asos; O'zMB nazorati	Milliy huquqiy
Lavrushin O.I. (2020)	«Bank tizimida naqd pulsiz hisob-kitob vositasi; bank xizmatlarining yangi shakli»	Keng yondashuv: bank kartalari va MBXT ham kiritilgan	Hisob-kitob (keng)
Muallif taklifi (2024)	«Elektron infratuzilmada emitent kafolati asosida muomalada bo'luvchi, bank hisobvarag'i ocharmasdan foydalanish imkoniyatli, to'lovlar uchun qabul qilinadigan raqamli qiymat birligi»	ISK modeli bilan o'lchanadigan; inklyuzivlik va fiskal samara beruvchi	Integratsion-empirik

Manba: muallif tomonidan BIS (2022), ECB (2023), O'zR Qonuni (2019) asosida tuzilgan

Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, ta'riflar orasida uchta umumiy belgi ajralib turadi: (1) elektron saqlash; (2) oldindan to'lov (prepaid) xarakteri; (3) bank hisobvarag'isiz foydalanish imkoniyati. Muallif taklif qilgan «integratsion-empirik» ta'rif ushbu uchta belgini birlashtiradi va O'zbekiston milliy kontekstiga moslashtiradi.



Konseptual yondashuvlar tahlili - Muallif zamonaviy moliya fani va rasmiy hujjatlarda elektron pullarni talqin qilishda uchta asosiy konseptual yondashuv mavjud, deb hisoblaydi. Ularning qiyosiy tahlili 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval):

2-jadval. Elektron pullar bo'yicha konseptual yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Yondashuv	Tarafkorlar	Asosiy pozitsiya	Kuchli tomoni	Zaif tomoni
(Hisob-kitob (tor	Afonina, Chelnokov, Savin	Elektron pul = bank kartasi + MBXT tizimi	Amaliyotga yaqinlik; keng tarqalganlik	Bank hisobvarag'ini shart qilib qo'yadi; inklyuzivlik past
Hisob-kitob ((keng	Lavrushin, Savinskiy	Barcha naqd bo'lmagan raqamli hisob-kitob vositasi	Keng qamrov; tartibga solish qulay	Elektron pul va naqd bo'lmagan pul farqi yo'qoladi
Nopul moliyaviy mahsulot	Fridman, Yaponiya bank modeli	Elektron pul = investitsiya yoki qimmatli qog'oz analogi	Monetar siyosat aralashuvini cheklaydi	Iqtisodiy mohiyatni buzadi; pul funksiyalarini inkor etadi
(Pul talqini (to'liq	Bernkopf, Browne & Cronin	Elektron pul markaziy bank pulini to'liq almashtiradi	Nazariy izchillik; CBDC uchun asos	Hozirgi amaliyotdan uzoq; monetar xavf yuqori
Pul talqini ((qisman	Goodhart, King, BIS	Elektron pul markaziy bank pulining bir ko'rinishi	Muvozanatli; regulyatorlik imkoni saqlanadi	Emitentlar raqobatini cheklashi mumkin

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan

Bizning fikrimizcha, bank kartalari va masofaviy bank xizmatlari tizimlari (MBXT) elektron pullar emas, balki banklardagi shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettirilgan naqd pulsiz mablag'larga masofadan turib kirish imkonini beruvchi zamonaviy vositalardir. Elektron pulning muhim farqlovchi belgisi — bank hisobvarag'i ochmasdan foydalanish imkoniyati. Bu belgi moliyaviy inklyuzivlik nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Elektron pullarning kengaytirilgan funksiyalari - Klassik pul nazariyasida (Fisher, 1911; Keynes, 1936) pulning uchta asosiy funksiyasi (muomala vositasi, qiymat saqlash, hisob-kitob birligi) ajratiladi. Elektron pullar ushbu uchta klassik funksiyaga uchta qo'shimcha funksiyani — monetar siyosat kanali, fiskal shaffoflik kanali va inklyuzivlik kanali — qo'shadi. 3-jadvalda kengaytirilgan funksiyalar tizimi keltirilgan (3-jadval):

3-jadval. Elektron pullarning kengaytirilgan funksiyalari: nazariy asos va O'zbekiston misoli

Funksiya	Elektron pulda namoyon bo'lishi	O'zbekiston misoli	Nazariy asos
Muomala vositasi	Onlayn savdo, P2P, QR-kod orqali real-time hisob-kitob	Payme, Click, Apelsin — bozorning 80%i	Keynes (1936): tranzaksiya talabini qondiradi; Fisher tenglama $MV=PQ$ da V ni oshiradi
To'lov vositasi	Kommunal, soliq, G2P (davlatdan shaxsga) to'lovlar	mlrd+ tranzaksiya; 2 :2024 G2P subsidiya raqamlashtirildi	Merton (1995): moliyaviy vositachilik samaradorligi; Fisher (1911) almashinuv nazariyasi
Qiymat saqlash	Elektron hamyonlarda qisqa muddatli qiymat saqlash	mln+ elektron hamyon 27 (2024); inflyatsiya ta'siri cheklangan	Friedman (1956): pul talabi; inflyatsiya stabiligi shartlari
Hisob-kitob birligi	Raqamli tranzaksiya hajmi va statistik hisob	O'zMB real-time tranzaksiya monitoring tizimi	Ingham (2004): pul — ijtimoiy munosabat; Knapp davlat pul nazariyasi
Monetar siyosat kanali	Pul agregatlari (M1, M2) ga ta'sir; pul multiplikatori	O'zMB elektron pullarni M2 da hisobga olish metodologiyasi	Bernanke & Gertler (1995): kredit kanali; elektron pul pul multiplikatorini o'zgartiradi
Fiskal shaffoflik kanali	Soliqqa tortiladigan tranzaksiyalar ulushini oshirish	IMF (2023): byudjet tushumi +15–20% potensial	Tanzi (2000): iqtisodiyotni rasmiylashtirishning fiskal samarasi

Manba: muallif tomonidan Fisher (1911), Keynes (1936), Friedman (1956), Merton (1995), IMF (2023) asosida tuzilgan



Moliyaviy inklyuzivlik: iqtisodiy-nazariy tahlil - Moliyaviy inklyuzivlik nazariyasi (Demirgüç-Kunt & Klapper, 2012 [9]; World Bank, 2022 [1]) shuni ko'rsatadiki, bank va to'lov xizmatlariga kirish imkoni past bo'lgan aholining daromad va iste'mol imkoniyatlari sezilarli past bo'ladi. Stiglitz & Weiss (1981) ning kredit ratsionlash modeli bo'yicha [10] bank xizmatlaridan mahrum qolgan uy xo'jaliklari norasmiy kredit bozorida yuqori foiz to'laydi, bu esa ularning kapital to'plash imkoniyatini cheklaydi.

Elektron pullar bu muammoni ikki yo'l bilan hal qiladi: birinchidan, bank hisobvarag'i talab etmasdan moliyaviy xizmatlarga kirish imkonini beradi; ikkinchidan, raqamli kredit skoringi orqali an'anaviy bank krediti olish imkoni bo'lmagan aholi segmentlari uchun yangi moliyaviy mahsulotlarga yo'l ochadi. Jahon banki (2022) hisobotiga ko'ra, mobil pul xizmatlari joriy etilgan mamlakatlarda uy xo'jaliklarining farovonlik ko'rsatkichi o'rtacha 5–7% ga yaxshilangan [1].

O'zbekistonda Gender Index (2022) ma'lumotlariga ko'ra, ayollarning bank qamrovi erkaklarnikidan 22 p.p. past (55% va 77%). Elektron hamyonlar bu tafovutni kamaytirish uchun samarali vosita: mahalla dasturlari va offline CBDC birlashtirsa, 2030-yilga kelib gender bo'shlig'ini 8 p.p. gacha tushirish mumkin [6].

Huquqiy asoslar: xalqaro qiyoslama - Elektron pullar sohasidagi xalqaro huquqiy asos mamlakatdan mamlakatga sezilarli farqlanadi. Bu farqlanish nafaqat texnologik, balki siyosiy-iqtisodiy omillar bilan ham belgilanadi. 4-jadvalda asosiy tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili keltirilgan (4-jadval):

4-jadval. Elektron pullar sohasidagi xalqaro huquqiy asoslar va O'zbekiston uchun saboqlar

Mamlakat / hudud	Asosiy me'yoriy hujjat	Tartibga solish modeli	O'zbekiston uchun saboq
Yevropa Ittifoqi	E-Money Directive 2009/110/EC; PSD2 ((2018	Litsenziyalash + kapital talabi + foydalanuvchi himoyasi; Open Banking majburiy	PSD2 ning Open API talabi O'zBS-API standartiga asos bo'lishi mumkin
AQSH	FinCEN BSA talablari; pul o'tkazma operatorlari (MSB) rejimi	Shtat darajasida tartibga solish; federal AML/CFT majburiy	Federal va hududiy tartibga solish muvozanatini O'zbekiston viloyat banklari uchun ko'rish
Xitoy	PBOC elektron to'lov qoidalari (2021); e-CNY yo'l xaritasi	PBOC markaziy nazorat; Alipay/WeChat Pay kvazi-CBDCga o'tmoqda	e-CNY tajribasi O'zbekiston CBDC modeliga bevosita ko'chirilishi mumkin — PBOC + xususiy platforma
Hindiston	RBI Prepaid Payment Instruments (PPI) qoidalari (2021); UPI	KYC asosida darajali litsenziya; UPI ochiq API orqali raqobat	Darajali KYC + ochiq API = inklyuzivlik + raqobat — O'zbekiston uchun optimal model
Singapur	MAS Payment Services Act (2019); sandbox rejimi	Risk-asosida (proportional) tartibga solish; sandbox innovatsiyaga yo'l ochadi	MAS sandbox modeli O'zMB fintech sandboxini kengaytirish uchun namuna
O'zbekiston	To'lovlar va to'lov» tizimlari» Qonuni (2019); O'zMB nizomlar	Litsenziyalash; O'zMB to'liq nazorat; AML/KYC talablari	Prinsiplarga asosli tartibga solish (PBR) ga o'tish tavsiya etiladi — innovatsiya to'siqlarini kamaytirish

Manba: muallif tomonidan ECB (2023), MAS (2022), RBI (2023), O'zR Qonuni (2019) asosida tuzilgan

Jadval tahlili O'zbekiston uchun eng maqbul model Hindiston PPI + UPI kombinatsiyasi ekanligini ko'rsatadi: darajali KYC (full KYC va minimal KYC bosqichlari), Open API orqali raqobatni rag'batlantirish va risk-asosidagi tartibga solish. Bunday yondashuv fintech innovatsiyasini rag'batlantiradi va inklyuzivlikni ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda elektron to'lovlar bozori so'nggi besh yilda jadal rivojlandi. Quyidagi 5-jadvalda 2019–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan (5-jadval):



5-jadval. O'zbekiston elektron to'lovlar bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2019–2024)

Ko'rsatkich	2019	2020	2022	2023	(prognoz) 2024
Elektron to'lovlar hajmi, mlrd so'm	200 4	800 9	600 48	000 120	000+ 200
Elektron hamyonlar soni, mln	3.2	6.8	18.4	24.6	27.0+
(Naqd bo'lmagan to'lov ulushi, % (YalM	12.4%	18.7%	38.2%	52.6%	60%+
Tranzaksiyalar soni, mlrd	0.18	0.42	1.10	1.68	2.0+
POS terminallari, ming dona	48	72	124	164	185+
Aktiv fintech kompaniyalar soni	18	31	62	88	95+
Internet foydalanuvchilar, % aholi	52.3%	58.4%	68.1%	73.6%	76.4%
(Bank qamrovi, % (15+	52.4%	58.2%	66.8%	70.1%	73.2%

Manba: O'zMB statistik byulletenlari (2019–2024); muallif hisob-kitoblari

Jadval tahlilining eng muhim xulosasi: naqd bo'lmagan to'lov ulushi 2019-yildagi 12.4%dan 2024-yilda 60%+ ga o'sdi. Bu o'sish Braziliya PIX tizimi joriy etilgandan keyingi 3 yillik o'sish sur'atiga (42%) dan yuqori. Biroq internet foydalanuvchilar ulushi (76.4%) va bank qamrovi (73.2%) o'rtasidagi 3.2 p.p. tafovut hali ham «raqamli to'siq» mavjudligini ko'rsatadi.

Fintech ekotizimi va raqobat muhiti - O'zbekistonda fintech ekotizimi tezkor rivojlanmoqda: 2024-yilda 95+ aktiv kompaniya bozorda ishlamoqda. Uchta yirik platforma — Payme, Click va Apelsin — bozorning 80%ini egallamoqda. Biroq bu konsentratsiya iqtisodiy raqobat nuqtai nazaridan muammo tug'dirishi mumkin: Tirole (2014) [11] ning platforma raqobati nazariyasiga ko'ra, ikki tomonlama bozor monopoli foydalanuvchilarga xarajat va sifat bo'yicha zarar yetkazishi mumkin.

Open Banking API standartini joriy etish (tavsiya etilgan muddat: 2025-yil II chorak) bu muammoni hal qilishning asosiy vositasi. Hindiston UPI tajribasi shuni ko'rsatadiki, ochiq API platformasi joriy etilgandan so'ng yangi fintech operatorlar soni 3 yil ichida 7 barobar oshgan va xizmat narxlari 65% kamaygan [4].

Makroiqtisodiy ta'sir: pul massasi va fiskal samaradorlik - Elektron pullarning makroiqtisodiy ta'siri ikki asosiy kanalda namoyon bo'ladi. Birinchi kanal — pul muomalasi tezligi. O'zbekistonda naqd bo'lmagan to'lov ulushining 12.4%dan 60%ga o'sishi V ko'rsatkichini sezilarli oshirdi. Bu esa O'zMB ning pul-kredit siyosatini qiyinlashtiradi, chunki M2 agregati o'zgarmasdan YalM o'sishi kuzatilmoqda.

Ikkinchi kanal — fiskal shaffoflik. IMF (2023) hisob-kitoblariga ko'ra, naqd pul muomalasini 10 p.p. kamaytirish soliq tushumini 1.2–1.8% p.p. oshiradi [12]. O'zbekistonda naqd pul ulushi 2019-yilgi 87.6%dan 2024-yilga kelib 40%ga tushganligi (~47.6 p.p.) hisobga olinsa, fiskal samara 2024-yilda YalM ning 5.7–8.6%ini tashkil etishi mumkin. Bu potensial beqiyos katta miqdor.

Xavflar va ularni boshqarish tizimi - Elektron pullar bilan bog'liq xavflarni tizimli boshqarish ISO 31000:2018 risk management metodologiyasiga asoslanadi [13]. 7 ta asosiy xavf ehtimollik × ta'sir matritsasida baholandi (6-jadval):

6-jadval. Elektron pul bozori xavflari baholash matritsasi (ISO 31000 asosida)

No	Xavf turi	Ehtimollik ((1–5	Ta'sir ((1–5	Asosiy sabab	Joriy nazorat	Tavsiya etilgan chora
1	Kiberxavfsizlik (DDoS, phishing, MITM)	4	5	Zaif autentifikatsiya; eskirgan infra	2FA; shifrlash	Zero-trust arxitektura; yillik pen-test; AI-fraud monitoring
2	AML/CFT muvofiqlashtirish	3	5	Anonimlik; chegarasiz o'tkazma	KYC talablari	Real-time tranzaksiya monitoring; xalqaro FATF muvofiqlashtirish
3	Emitent tavakkali ((bankrotlik	2	5	Kafolat yo'q; kapital yetarli emas	Litsenziya talabi	Ximoya fondlari; kapital (buferi (Basel III analog
4	Likvidlik va konvertatsiya	3	4	Platforma monopoli; almashinuv cheklov	O'zMB interoperabellik talabi	Milliy kliring ko'prigi; to'lov tizimi interoperabellik standart
5	Ma'lumotlar maxfiyligi	4	4	Tranzaksiya ma'lumot yig'ish	PDPA analog yo'q	GDPR uslubida milliy ma'lumot himoya qonuni; minimizatsiya prinsipi
6	Monetar siqilish (CBDC (disintermediation	2	4	CBDC bankdan pul oqishi	Hozir CBDC pilot yo'q	Depozit chegarasi; foizsiz CBDC dizayni; IMF tavsiyalari
7	Raqamli bo'linish (digital divide	4	3	Qishloq internet pas; keksalar	Moliyaviy savodxonlik	Offline CBDC; agent bank-ing; maxsus dasturlar

Manba: muallif tomonidan ISO 31000:2018, FATF (2022), McKinsey (2023) asosida tuzilgan; ball = ehtimollik × ta'sir



Jadval shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik (ball=20) va AML/CFT muvofiqlashtirish (ball=15) eng yuqori darajali xavflar. McKinsey (2023) ma'lumotiga ko'ra, fintech kompaniyalarning 92% kiberxavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yadi va xavfsizlik investitsiyalari umumiy IT byudjetining 3.2%ini tashkil etadi. O'zbekiston uchun 0.8% darajasidagi joriy xavfsizlik sarfi ikki-uch barobar oshirilishi zarur.

RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: CBDC, AI VA BIOMETRIK TO'LOVLAR

CBDC xalqaro tajribasi va «Raqamli so'm» perspektivasi - Hozirda 134 dan ortiq davlat CBDC ustida ishlamoqda (IMF, 2024) [12]. Bu tizimlar xalqaro tajriba nuqtai nazaridan turli natijalarga erishgan. 7-jadvalda asosiy CBDC loyihalari va O'zbekiston uchun ahamiyati keltirilgan (7-jadval):

7-jadval. CBDC xalqaro tajribasi va O'zbekiston «Raqamli so'm» uchun saboqlar

Mamlakat	Bosqich	Platforma nomi	Asosiy natija	O'zbekiston uchun ahamiyati
Xitoy	To'liq tijorat	(e-CNY (Digital Yuan	mln+ 250 foydalanuvchi; 14 shaharda faol	Katta iqtisodiyotda CBDC ishlashi isbotlandi
Bahamas	To'liq tijorat	(Sand Dollar (2020	Orol iqtisodiyotida 100% qamrov	Kichik/izolyatsiyalangan hududlarda CBDC samarali
Nigeriya	Tijorat	(eNaira (2021	mln+ foydalanuvchi; 8 inklyuzivlik muammo	Majburiy joriy etish muvaffaqiyatsiz — ixtiyoriy bo'lishi kerak
Hindiston	Keng pilot	(Digital Rupee (₹	mln+ 1 :2024 foydalanuvchi; UPI bilan integratsiya	UPI + CBDC kombinatsiyasi — O'zbekiston uchun optimal model
Shvetsiya	Kengaytirilgan pilot	e-Krona	Naqd pul ulushi <10%; CBDC zarurati isboti	Naqd pul kamayganda CBDC barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi
O'zbekiston	Tadqiqot	Raqamli so'm»» ((rejalashtirilgan	kontsepsiya; :2024 2025 pilot maqsad	UPI+₹ va e-CNY tajribasini sintez qilgan aralash model tavsiya etiladi

Manba: IMF (2024), BIS Innovation Hub (2023), markaziy banklar yillik hisobotlari; muallif tuzgan

Jadval tahlilining asosiy xulosasi: muvaffaqiyatli CBDC joriy etishda uchta omil hal qiluvchi — ixtiyoriylik (Nigeriya tajribasi aksi), mavjud infratuzilma bilan integratsiya (Hindiston: UPI + ₹) va keng ommaviy muloqot. O'zbekiston uchun «Raqamli so'm» ni Humo/Uzcard bilan to'liq integratsiyalangan, ixtiyoriy, 0-komissiyali (zero cost) va offline rejimda ham ishlaydigan CBDC sifatida loyihalash tavsiya etiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi to'lov tizimlari - AI to'lov tizimlarini ikki yo'nalishda tubdan o'zgartirmoqda. Birinchi yo'nalish — fraud detection (firibgarlikni aniqlash): mashinaviy o'rganish modellari an'anaviy qoida-asosidagi tizimlardan 73% samaraliroq firibgarlikni aniqlaydi (McKinsey, 2023) [8]. Ikkinchi yo'nalish — personalizatsiya: AI har bir foydalanuvchi xulq-atvori asosida shaxsiylashtirilgan moliyaviy tavsiyalar beradi va kross-sotuv imkonini yaratadi.

O'zbekiston uchun AI to'lov tizimlariga investitsiya iqtisodiy jihatdan asoslangandir: World Bank (2022) hisob-kitoblari ko'ra, AI-asosidagi fraud monitoring joriy etgan bank tizimlari uchun fraud zarar 3 yil ichida 68–72% kamayadi [1]. O'zbekiston uchun bu yiliga ~840 mlrd so'm potensial tejamlorlikni anglatadi.

Biometrik to'lovlar: Yuz orqali to'lov (Face-Pay) istiqboli - Biometrik to'lovlar (yuz va barmoq izi orqali) global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Mastercard (2023) tadqiqotiga ko'ra, biometrik to'lovlar foydalanuvchi qulayligini 40% oshiradi va PIN/parol o'g'irligini 99.7% oldini oladi [14]. Moskvada Face-Pay tizimida 2 mln+ foydalanuvchi (2024), Pekinda Alipay Face-Pay 380 mln+ foydalanuvchiga ega.

O'zbekiston uchun biometrik to'lovlarni eKYC tizimi bilan integratsiyalash tavsiya etiladi. EGID (elektron guvohnoma) ma'lumotlar bazasi 2025-yilda to'liq raqamlashtirilishi rejalashtirilayotganligi hisobga olinsa, biometrik to'lovlar uchun zarur infratuzilma 2026-yilga qadar tayyor bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot elektron pullarning iqtisodiy mohiyatini ko'p qirrali nazariy-empirik tahlil orqali ko'rib chiqdi. Asosiy xulosalar:

1. Elektron pullar klassik pul nazariyasida (Fisher, Keynes, Friedman) ko'zda tutilmagan yangi funksiyalar — monetar siyosat kanali, fiskal shaffoflik va inklyuzivlik — bilan zamonaviy pulning yangi shaklini tashkil etadi. «Integratsion-empirik» ta'rif (bank hisobvarag'isiz foydalanish + emitent kafolati + inklyuzivlik xususiyati) O'zbekiston milliy kontekstiga eng mos yondashuv hisoblanadi.

2. O'zbekistonda elektron to'lovlar bozori 2019–2024 yillarda 55 barobar oshdi. Naqd bo'lmagan to'lov ulushining 12.4%dan 60%ga o'sishi fiskal samarani YaIM ning 5.7–8.6%ini tashkil etgan deb baholanadi. Biroq



internet (76.4%) va bank qamrovi (73.2%) orasidagi tafovut «raqamli to'siq»ni bartaraf etishda qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

3. CBDC «Raqqamli so'm» uchun Hindiston tajribasi (UPI + e₹ integratsiyasi) va Braziliya PIX modelining «zero cost + ixtiyoriylik» printsiplari sintezi tavsiya etiladi. Joriy etish 2025-yil pilot, 2026-yil kengaytirish jadvali CBDC muvaffaqiyatining asosiy sharti.

4. Kiberxavfsizlik (risk ball=20) va AML/CFT muvofiqlashtirish (ball=15) ustuvor bartaraf etish choralari talab etadi. Zero-trust arxitektura va real-time AI monitoring O'zbekiston uchun xavfsizlikning strategik vositalari sifatida taklif etiladi.

5. Open Banking API standartini (O'zBS-API 1.0) 2025-yilda joriy etish fintech ekotizimdagil monopollashtirish xavfini kamaytiradi va xizmat narxlarini 40–65% pasaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Global Findex Database 2022: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. — Washington D.C.: World Bank, 2022. — 168 p.
2. Fisher, I. The Purchasing Power of Money. — New York: Macmillan, 1911. — 505 p.
3. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936. — 472 p.
4. NPCI. UPI Annual Report 2022–23. — Mumbai: NPCI, 2023. — 88 p.
5. PBOC. Annual Report on Payment System Operation 2023. — Beijing: PBOC, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari va to'lov xizmatlari monitoring hisoboti 2023. — Toshkent: O'zMB, 2023. — 112 b.
7. BIS. Electronic Money: Consumer Protection, Law Enforcement, Supervisory and Cross Border Issues. — Basel: BIS CPML, 2022. — 68 p.
8. McKinsey & Company. The 2023 McKinsey Global Payments Report. — New York: McKinsey, 2023. — 64 p.
9. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L. Measuring Financial Inclusion // World Bank Policy Research Working Paper. — 2012. — № 6025. — 61 p.
10. Stiglitz, J., Weiss, A. Credit rationing in markets with imperfect information // American Economic Review. — 1981. — Vol. 71, № 3. — P. 393–410.
11. Tirole, J. The Theory of Corporate Finance. — Princeton: Princeton University Press, 2014. — 644 p.
12. IMF. Central Bank Digital Currencies: Motives, Economic Implications, and the Research Frontier // IMF Working Paper WP/23/166. — Washington D.C.: IMF, 2023. — 58 p.
13. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — Geneva: ISO, 2018. — 16 p.
14. Mastercard. The Future of Biometric Payments 2023. — Purchase, NY: Mastercard, 2023. — 44 p.
15. Friedman, M. The Quantity Theory of Money: A Restatement // Studies in the Quantity Theory of Money / Ed. M. Friedman. — Chicago: University of Chicago Press, 1956. — P. 3–21.
16. Merton, R. C. A functional perspective of financial intermediation // Financial Management. — 1995. — Vol. 24, № 2. — P. 23–41.
17. Ferguson, N. The Ascent of Money: A Financial History of the World. — New York: Penguin, 2019. — 464 p.
18. Tapscott, D., Tapscott, A. Blockchain Revolution. — New York: Portfolio/Penguin, 2018. — 368 p.
19. FATF. Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. — Paris: FATF, 2019. — 66 p.
20. «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. — Toshkent, 2019-yil 1-mart.
21. Toshniyozov, Sherali. «To'lov Tizimi Konseptual Modelining Shakllanish Tamoyillari.» Green Economy and Development, vol. 3, no. 10, 23 Oct. 2025, doi:[10.5281/zenodo.17573086](https://doi.org/10.5281/zenodo.17573086).
22. Toshniyozov S. Trends in the Adoption of New Digital Payment Products //Nashrlar. – C. 173-177. Doi:<https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp173-177>
23. Sherali Toshniyozov. (2024, ноябрь 19). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING O'RNI, RAQAMLI PUL MUOMALASI MODEL HAQIDA TUSHUNCHA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14185051>
24. Sherali Toshniyozov. (2024, November 19). Issues and Prospects of Using Electronic Document Circulation in the Economy of Uzbekistan. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14184472>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
